

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON
SAVDONI RIVOJLANTIRISH**

Meylimurodova Nargiza Ziyodullayevna

Qarshi xalqaro universiteti Muhandislik va pedagogika fakulteti

70410102 – Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotda elektron savdoning tutgan o‘rni, savdo sohasining rivojlanishi elektron tijorat darajasiga qadar ko‘tarilib, elektron tijoratning ko‘lamining ortib borishi va raqamli iqtisodiyotda elektron savdoning rivojlanish darajasi va sifatini oshirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, edektron savdo, internet tarmog‘i, elektron tijorat, biznes jarayon.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’sirida raqamli tizimda ishlaydigan kompyuterlar, mobil telefonlar va internet texnologiyalarining paydo bo‘lishi iqtisodiyotni tubdan o‘zgarishiga olib keldi. Natijada, hozirgi kunda jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahonda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, ilmiy-texnik tadqiqotlar, yirik transmilliy kompaniyalarida iste’molchilar ehtiyoj-larining muntazam ravishda o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq xatti-harakatlar shuningdek, axborot almashinuvining erkinlashuvi ta’sirida o‘sib borayotgan kontentning roli hamda raqamli jamiyatni barpo etishning boshqa yo‘nalishlari iqtisodiyotning real tarmoqlarida menejment faoliyatini takomillashtirishning keng qamrovli imkoniyatlarini yaratmoqda.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning dunyo miqyosida tutgan o‘rni va uning rivojlanish tendensiyalari tobora ortib bormoqda. Misol uchun, ma’lumotlar oqimi ko‘laming o‘zgarishi internet protokoli (IP) ga asoslangan global trafik hajmining 1992 yilda kuniga 100 gigabaytni tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilda bu ko‘rsatkich sekundiga 89000 Gb dan oshdi. Bu ma’lumotlar raqamli iqtisodiyot rivojlanishining dastlabki bosqichiga tegishli ekanini hisobga olsak, uning rivojlanishi sur’ati to‘g‘risida tasavvur hosil qilish qiyin emas. Prognozlarga ko‘ra, 2023yil yakuniga borib global IP-trafik hajmi sekundiga 150700 Gb ga yetadi, bu Internet tarmog‘ida yangi foydalanuvchilarning ko‘payishi va internetning yanada kengayishi natijasida amalga oshadi¹.

¹ BMT savdo va rivojlanish konferensiyasi. Raqamli iqtisodiyot bo‘yicha hisobot (2019). https://unctad.org/en/PublicationsLibrary/der2019_overview_ru.pdf

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Jahon miqyosida olib qaraydigan bo‘lsak, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish geografiyasida ikki mamlakat yetakchi o‘rinni egallab turibdi. Bular AQSh va Xitoy. Bu mamlakatlarga blokcheyn texnologiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha patentlarning 75 foizi, “Internet of Things (buyumlar interneti)”ga² sarflanadigan xarajatlarning 50 foizi va bulutli hisoblash ochiq texnologiyalari global bozorining 75 foizidan ortig‘i to‘g‘ri keladi. Eng diqqatgasazovor tomoni shundaki, ular dunyodagi 70 ta eng yirik raqamli platformalarning bozorkapitallashuvining 90 foizini nazorat qilishadi.

Hozirgi paytda kompyuterlashtirish va yuqori texnologiyalar asrida raqamli iqtisodiyot hayotimizning har bir jabhasiga: internet-savdo, sog‘liqni saqlash, ta’lim, internet-banking, hukumatga daxldor bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 28 apreldagi, PQ-4699-sonli Qarori asosida 2023 yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravarga ko‘paytirish nazarda tutilgan. Iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi sanoat, internet-savdo, xizmat ko‘rsatish sohasi va qishloq xo‘jaligini ravnaq toptirish, tadbirkorda tashabbuskorlikni kuchaytirish, moliyaviy resurslar bilan ta’minalash kabi omillarga asoslanadi.

Internet-savdo, raqamli qishloq xo‘jaligi, «aqlli» elektron tarmoq tizimlari, uchuvchisiz transport, shaxsiylashtirilgan sog‘liqni saqlashda raqamli iqtisodiyot inqilobi kuchli his qilinmoqda.

Elektron tijoratga quydagilarni kiritish mumkin:

- ✓ elektron ma’lumot almashish (Electronis Data Interchange, EDI),
- ✓ elektron kapital oqimi (Electronic Funds Transfer, EFT),
- ✓ elektron savdo (inglizcha e-trade),
- ✓ elektron banking (e-banking),
- ✓ elektron sug‘urta xizmatlari (e-insurance).

Hozirgi vaqtda elektron tijoratni har xil nuqtai nazaridan tadqiq etish mumkin:

- *ulanishlar nuqtai nazaridan*: elektron tijorat - bu telefon liniyalari, kompyuter tarmoqlari yoki boshqa har qanday elektron vositalar yordamida ma’lumot, tovarlar, xizmatlar vato‘lovlarni yetkazib berish usuli;
- *biznes-jarayon nuqtai nazaridan*: elektron tijorat - bu biznesdagи operatsiyalarni avtomatlashtiradigan texnologiya;
- *kosmik nuqtai nazaridan*: internetning ochiq infratuzilmasi elektron tijoratda global(cheksiz) amalga oshiriladigan muhitni (Internetni) yaratadi.

² Internet of Things, IoT – qurilmalarni kompyuter tarmog‘iga birlashtiradigan va ularga dasturiy ta’milot, amaliy dasturlar yoki texnik vositalardan foydalangan holda ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish, qayta ishlash va boshqa ob’ektlarga uzatish imkonini beradigan texnologiya.

Elektron tijorat biznesni yuritish va rivojlantirish uchun qo'shimcha vosita sifatida yangi muhit, elektron tijorat texnologiyalari bilan to'ldiriladigan an'anaviy biznesmodelining mavjudligini anglatadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Elektron tijoratning rivojlanishi bozorni axborot bilan ta'minlashni yaxshilaydi: xaridor va sotuvchilar deyarli har xil raqobatchilar tomonidan taklif etilayotgan tovarlarning narxi, sifati va etkazib berish shartlari to'g'risida ma'lumot olishadi. Bozor ma'lumotlariga kirish, xaridorlar va sotuvchilar uchun yangi potensial mijozlar va yangi mahsulotlarning mavjudligi kichik va o'rta korxonalarining rivojlanishiga yordam beradi, bu esa barcha darajadagibudgetlarga soliq tushumlarini ko'paytiradi, ishsizlikni kamaytiradi va hududlarda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Measuring the Information Society Report Volume 1. 2018. ITUPublications. Statistical reports. International Telecommunication Union. Place des Nations. CH-1211 Geneva Switzerland.
2. BMT savdo va rivojlanish konferensiyasi. Raqamli iqtisodiyot bo'yicha hisobot (2019). https://unctad.org/en/PublicationsLibrary/der2019_overview_ru.pdf
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli iqtisodiyotni rivojlanirish maqsadidaraqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori// «Xalq so'zi» gazetasi, 22 noyabr 2018 yil.
4. Ergashev R. X., Ravshanov A. D. Innovatsionnoy napravleniya ustoychivogo razvitiya agrarnogo sektora Uzbekistana. – (24-25 noyabrya 2016 goda). 325-327 str.2016.